

TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASINING AHAMIYATI

Yuldasheva Kamola Miraliyevna
Oriental universiteti o'qituvchisi
feruzayuldasheva689@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilari yakuniy davlat attestatsiyasining ta'lim uzluksizligini ta'minlashdagi ahamiyati va uning ta'lim sifatini nazorat qilish vositasi sifatidagi o'rni tahlil qilingan. Ushbu jarayonni tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari ochib berilgan. Shuningdek, bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini tashkil etishdagi mavjud muammo va kamchiliklar bo'yicha tanqidiy mulohazalar keltirilib, muammo yechimi yuzasidan amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: baholashni tashkil etish, yakuniy davlat attestatsiyasi, kirish imtihonlari, unifikatsiya

Rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyot tarixiga nazar tashlasak, ulardagi umumiy bir jihat e'tiborimizni tortadi. Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Finlyandiya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatiga e'tibor mamlakat siyosati darajasiga ko'tarilsagina, davlat taraqqiy etadi.

Yurtimizda ham aynan shu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar kelajakda rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishimizda poydevor vazifasini o'tamoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini nazorat qilish bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylangan. Chunki ta'limdagi har qanday islohot natijasi oxir-oqibat ta'lim sifatining samaradorligi bilan baholanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida ta'kidlanganidek: "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir".

Ayniqsa, ta'lim tizimidagi uzviylik asosida maktab bitiruvchilarining umumiy o'rta ta'limdan keyingi ta'limni davom ettirishga qay darajada tayyorligini baholash davlat miqyosida e'tibor qaratilayotgan masala hisoblanadi.



Ayrim ekspertlar maktab bitiruvchilarining bilimlarini baholashda an'anaviy yondashuvlarni tanqid qiladilar. Xususan, Kapper ta'kidlaganidek, "Ko'pgina mamlakatlarda ta'lim jarayoni ishtirokchilari ularning ta'lim tizimi imtihonlarga shunchalik bog'liqligidan norozi, chunki butun ta'lim jarayonining maqsadi ta'limning keyingi bosqichiga o'tish uchun zarur bo'lgan imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirishdan iboratdir".

Kellagan va Grenining tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bir qator rasmiy va norasmiy hisobotlar va boshqa materiallarda an'anaviy imtihon tizimining kamchiliklari qayta-qayta qayd etilgan.

- boshlang'ich va o'rta darajadagi imtihonlarning aksariyati qog'ozda bo'lib, bu tarzda o'lchab bo'lmaydigan turli ko'nikmalarni e'tiborsiz qoldiradi;
- imtihonlarda nazariy ko'nikmalar (birinchi navbatda, boshlang'ich ta'lim oxirida til fanlari va matematika bo'yicha) tekshirilib, amaliy ko'nikmalarga juda kam e'tibor qaratiladi;
- ko'pchilik imtihon savollarida o'quvchi yangi material shakllantirish yoki nazariy tamoyillarni yangi vaziyatlarga tatbiq etishdan ko'ra faktik bilimlarni esga olishi yoki yodlab olgan bo'lishi kerak;
- ko'pgina topshiriq va savollar kamdan kam hollarda o'quvchilarning maktabdan tashqari kundalik hayoti bilan bog'liq.

Tadqiqotchi Holtning quyidagi fikri ham baholash jarayonining kamchiligini ta'kidlaydi: "Amalda barcha o'qituvchilar imtihon o'tkazishni ta'limning zaruriy qismi deb hisoblashadi. Men bu fikrga mutlaqo qo'shilmayman. Menimcha, baholash jarayoni foydadan ko'ra ko'proq zarar keltiradi; eng yomoni, u o'quv jarayoniga aralashadi, uni buzadi".

Shunday qilib, an'anaviy baholash tizimida tanlov funksiyasi bo'yicha mutaxassislar tomonidan ko'plab e'tirozlar mavjud. Shu bilan birga, tez-tez ta'kidlanganidek, tanlov obyektiv va mustaqil jarayon emas, balki ijtimoiy tuzilishga, o'quvchining keyingi o'zini o'zi anglashi va qoniqishiga ta'sir qiladi. Xususan, tadqiqotchilar Harris va MakKenning ta'kidlashicha, ko'proq qobiliyatli o'quvchilar hatto sinfning qolgan qismidan ustunligini tasdiqlashga imkon beradigan bunday qiyinchiliklardan bahramand bo'lishlari mumkin. Shu bilan birga, ko'pchilik o'quvchilar tashvish va o'zidan qoniqmaslik tuyg'ulariga duchor bo'lishadi.¹

¹ Drummond, T., & Gabrscsek, S. Understanding higher education admissions reforms in the Eurasian context. – European Education. – 2012. № 44.



Ko'plab tadqiqotchilar maktab bitiruvchilarini baholash jarayonida umumiy standartlashgan test sinovlari o'tkazishning afzalliklari haqida to'xtalib o'tadilar. Chunki baholashning bunday shakli qisqa vaqtda katta auditoriyani qamrab olish, obyektivlikni ta'minlash, inson omili ta'sirini kamaytirish, baholanadigan fan mavzulari doirasini kengaytirish imkonini beradi. Xususan, rossiyalik tadqiqotchi-olimlardan V.S. Avanesov, A.N. Mayorovlar ushbu baholash usulini tashkil etishning o'ziga xosligi haqida ko'plab tadqiqotlar olib borishgan.

Standartlashtirilgan testlar o'quvchining o'tmishdagi ilmiy yutuqlari va kelajakdagi salohiyatini aniqlashning juda keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Biroq yuqori darajadagi sinovlar (standartlashtirilgan yoki standartlashtirilmagan) tashvish tug'dirishi mumkin. O'qituvchilar yoki maktablar testlardagi eng yaxshi natijalar uchun taqdirlanganda, bu mukofotlar o'qituvchilarni boy va keng o'quv dasturini taqdim etish o'rniga faqat "imtihon uchun o'qish" ga undaydi. "Imtihon uchun o'qish" atamasi odatda salbiy ma'noga ega. O'qituvchilar o'z o'quvchilariga ko'proq bilim berishni xohlashadi, lekin vaziyat taqozo etganda agar ular testda nima borligini bilmasalar, ular o'zlari xohlagan joyga kirish uchun kurashadilar.

Ta'limda standartlashtirilgan testlar tarafdorlari ko'pincha ta'limda muvaffaqiyatga erishish uchun quyidagi afzalliklarni ko'rsatib o'tadilar:

- Sinovdan o'tuvchining ishi bo'yicha qayta aloqa yoki diagnostika
- Adolat va samaradorlik
- Mas'uliyatni rag'batlantirish
- Prognozlash va tanlash
- O'quv faoliyatini yaxshilash

Ta'limdagi standartlashtirilgan testlarning tanqidchilari ko'pincha ta'limdagi standartlashtirilgan testlarni qayta ko'rib chiqish yoki olib tashlash uchun quyidagi sabablarni keltiradilar:

- Ta'lim formatini toraytirish orqali faqat imtihon uchun tayyorlanishga undash
- Prognozlashning sifatsizligi
- Sinovdagi yuqori ko'rsatkichlar
- Madaniy yoki ijtimoiy-iqtisodiy qarashlar
- Psixologik bosim
- Aqliy qobiliyatning yomon ko'rsatkichi

Mamlakatimiz uchun bu mavzu garchi nisbatan yangi bo'lsa-da, bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, M.Ahmedov, K.Jalilov, Z.Mirvaliyev,



M.Ermamatov, A.Baratov, N.Xakimovlar ta'lim sifatini nazorat qilishda baholashning ahamiyati, o'quvchilar bilimni ommaviy baholashda test tizimining ahamiyati, bu borada mavjud mexanizmlar tahlili yuzasidan ilmiy tadqiqotlar o'tkazishgan.

Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan bu borada qator izlanishlar o'tkazilgan. "Mamlakatimizda o'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim maktablarida olgan bilimlarini xolis baholash va oliy ta'lim muassasalariga talabalarni qabul qilishda shaffoflik va xolislikni ta'minlash borasida bir qator ijobiy qadamlar tashlandi. Bunda ta'lim muassasalarida joriy bilimlarni baholashni takomillashtirish, uning xolis, shaffof va haqqoniy bo'lishini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Maktabda olingan bilimlar bahosi oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonida olgan ballarning o'zaro bog'liqligini ta'minlashi lozim".

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mamlakatimizda baholash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha yanada keng qamrovli ilmiy izlanishlar o'tkazilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI"
3. 2022-yil 11-maydagi "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-241-son qarori
4. Capper, J.W. Testing to learn – Learning to test. – Washington: Academy for Education Development, 1996.
5. Kellaghan, T. & Greaney, V. Using examination to improve education: A study in fourteen African countries. – Washington: The World Bank, 1992.
6. Murphy, R. & Torrance, H. The changing face of educational assessment. – Philadelphia: Open University Press, 1991.
7. Drummond, T., & Gabrsek, S. Understanding higher education admissions reforms in the Eurasian context. – European Education. – 2012. № 44.

